

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil
08.07.2023 yilgi Oliy boshqaruvi bilan tasdiqlangan.

KIRILY ETILGAN


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili bakalavriat ta'lim yo'nalishining
malaka talablari**

Malaka talablari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" tomonidan
Oliy ta'lim yo'nalishini va innovatsiyalar vazirligining O'zbekiston
Respublikasi Milliy malaka va iqtisodiyotni rivojlantirish vazirligi, bilim va
kadrni tayyorlash bo'limi, talabalar uchun o'qish uchun va talabalar
uchun tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini tayyorlash uchun
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil «7» 08 dagi 344 -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi	4
1.2.1.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari	5
2.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya	10
2.3.2.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	11
2.3.3.	60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	11
	Bibliografik ma'lumotlar	13
	Kelishuv varog'i	14

1. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi

60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi. Bakalavriatura dasturining me'yoriy muddati – 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

–mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolati doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

–ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

–bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

–ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

–oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

–oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

– **60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili** bakalavriat ta'lim yo'nalishi umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlarini bilish;

– xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o'zbek tilini o'rgatuvchi kurslarda, o'zbek tili va madaniyati markazlarida faoliyat ko'rsatish;

– vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi sifatida ishlash;

– O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va boshqa tarmoqlar ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

– ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida, vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi sifatida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– o'zbek tili (davlat tili), o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonlari; o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlari, ta'limning nazariy masalalari; o'qitish metodikasi; loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

– o'zbek tili: nazariy va amaliy, sinxron, diaxron, ijtimoiy-madaniy va dilektologik aspektlarda; nutq madaniyati va uslubiyati, davlat tilida ish yuritish; zamonaviy o'zbek tili va yozuvi;

– adabiyot: badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi tarixiy va nazariy aspektlarda, jahon adabiyoti;

– mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayoni.

1.2.3. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- axborot-tahliliy faoliyat va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy

...ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari...

Pedagogik faoliyati bo'yicha:

- ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish malakasiga ega bo'lish;
- o'zbek tili va adabiyotini, hozirgi rus tilining o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish;
- o'zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalana olish, buning uchun o'z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- keng dunyoqarashga ega bo'lgan va mustaqil fikrlaydigan ma'naviy yetuk mutaxassis sifatida shakllanish;
- o'zbek tili va adabiyotini o'zga tilli maktablar, professional ta'lim, xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o'zbek tili kurslari, markazlarida o'qitishning samarali usullarini chuqur egallashi va undan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- rus, ingliz tilini chuqur o'zlashtirishi va undan kasbiy faoliyatda foydalana olish;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishgan holda ulardagi o'qitishning ilg'or usullarini ta'lim jarayoniga tatbiq qila olish;
- yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gneseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg'unligiga erishish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;
- ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- o'zbek tili, adabiyoti, chog'ishtirma tilshunoslik sohasida olingan nazariy amaliy bilimlarni qo'llash orqali ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda o'zbek tilini o'qitish metodikasiga, shuningdek, tilshunoslik, adabiyotshunoslikning nazariy masalalariga oid mavzularda tadqiqotlar olib borish;
- rus va boshqa xorijiy tillardagi manbalarni o'qiy olish va tarjima qila olish, o'z tadqiqoti mavzusiga oid rus, ingliz tilidagi materiallarni o'qiy olish va amalda qo'llash;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– kasbiy faoliyat yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

– til va adabiyot o‘qitishning samarali metodlariga oid xorijiy davlatlardagi ilmiy to‘plamlar, ilmiy-tadqiqotlarni o‘rganish;

– ma‘lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni tizimli tahlil qilish;

– ilmiy-tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida:

– ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy g‘oya va milliy g‘ururni singdirish;

– o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga, hozirgi davrdagi eng global muammo – ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

– globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

– vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha malaka va tajribasiga;

– mahallalarda ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish;

– milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– jamoada ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

– kasbiy muammolar yechimini topish;

– ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

– fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish hamda uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijasini baholash.

Axborot-tahlil faoliyati bo‘yicha:

– tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimining ishlashi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tahlil qilish, turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta‘minotini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– tashkilotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxona, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma‘lumot to‘plash tizimlaridan foydalangan holda

sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash;

- til o'rgatish jarayonida biznes-rejalarni modellash va biznes jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;

- xorijiy hamkorlar bilan yozishmalar olib borish, elektron hujjatlar yuritish;
- ijtimoiy tarmoqlarda, OAVda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va obro'sini oshirish choralarni ko'rishga oid targ'ibot materiallarini tayyorlash.

2. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlar haqida tizimli tasavvurga ega bo'lish, ularni mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ulardan foydalana olish;

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo'lish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakalariga ega bo'lish;

- ilmiy va ijodiy ish yozish malakasiga ega bo'lish; kasbiy faoliyatiga oid ilmiy-uslubiy maqola va tezislar, ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- madaniyatlararo muloqot, ya'ni turli xil madaniyatlar vakillari o'rtasidagi aloqaning maxsus shakllarini, o'zaro aloqada bo'lgan madaniyatlarning axborot almashinuvi va madaniy qadriyatlarini bilish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid va ilmiy axborot-ma'lumotlarni hamda ularning mohiyatini tushunish, erkin og'zaki va yozma muloqot qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvurga hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- notiqlik san'ati haqida tasavvurga ega bo'lish, adabiy manbalarni notiqlik mahorati bilan o'qiy olish malakasiga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar, tizimli yondashuv usullarini lingvodidaktikada qo'llay olish;

- hozirgi o'zbek adabiy tili, jumladan, til iyerarxiyasidagi fonetik-fonologik, leksik, semantik va grammatik sathlarga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor bo'lgan va me'yor bo'lmagan belgi-xususiyatlarini bilish, ularni tahlil qilish,

bu sohadagi munozarali nuqtalarni aniqlay olish;

- hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi ichki (lingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) omillarni bilish, hozirgi o'zbek adabiy tilining sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish;

- o'zbek orfografiyasi va punktuasiyasini mukammal bilish va ularga rioya etilishini ta'minlash;

- o'zbek tilshunosligining, xususan, fonologiya, grafika, orfografiya, leksikologiya, semasiologiya, morfologiya, sintaksis kabi sohalarning so'nggi yutuqlaridan, shuningdek, jahon va rus tilshunosligidagi muhim ma'lumotlardan o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili fanini o'qitishda foydalana olish;

- o'zbek va rus tillarining strukturasi va grammatik qurilishiga xos xususiyatlarni, tarkibiy-tipologik o'xshashliklari va farqlarini bilish; o'zbek va rus tillarining terminologiyasi bilan ishlash; til materialini tipologik tahlil qilish; o'zga tilli auditoriyada o'zbek tili ta'limida tipologik metodlardan foydalanish malakalariga ega bo'lish;

- o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'qitish metodikasining nazariy asoslari va dolzarb muammolarini bilish; til aspektlari va nutqiy faoliyat turlarini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lish; o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari; o'zbek tilida nutqiy va lingvistik kompetensiyani baholash mezonlarini pedagogik faoliyatida samarali qo'llay olish;

- ta'limning metod, usul, texnologiyalarini mustaqil tarzda ishlab chiqish va qo'llash; qo'llangan metodika va texnologiyalarning samaradorligini tahlil qilish; ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni tashhishlash va ularni bartaraf etish; nazorat materiallarini loyihalash va muvofiqlashtirish; o'z darslarini tahlil qilish va metodik jihatdan baholash malakalariga ega bo'lish;

- ilmiy-metodik adabiyotlar, davriy nashrlar, internet saytlaridan o'zbek tili va adabiyoti faniga oid eng yangi ilmiy yutuqlar, ilmiy tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy ilmiy-metodik manbalarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lish;

- o'zbek adabiyotining tarixi, ta'limoti va nazariyalari, yirik namoyandalari, namunalarini bilish, adabiy oqim va yo'nalishlarning shakllanish tarixi, nazariy-estetik asoslari, adabiy-tarixiy jarayonda tutgan o'rni va ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lish, ulardan pedagogik faoliyatida foydalanish;

- jahon adabiyotining badiiy, tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy omillari, jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan adabiy davrlar haqida tasavvurga ega bo'lish; jahon adabiyoti tadrijida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar biografiyasi, asarlari, adabiy muhiti, uslubi va badiiy mahoratini ilmiy talqin etish;

- jahon adabiyotining eng sara namunalari misolida adabiy turlar va janrlar takomili muammolari haqida fikr yuritish malakasiga ega bo'lish;

- davlat tilida ish yuritish va monitoringni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatida ularni qo'llash;

takomili muammolari haqida fikr yuritish malakasiga ega bo'lish;

- davlat tilida ish yuritish va monitoringni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatida ularni qo'llash;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalarini chuqur bilish va kasbiy faoliyatiga tatbiq qilish;

- yosh psixologiyasi va fiziologiyasi xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda bilimlarini kasbiy faoliyatida samarali qo'llash;

- nutq madaniyatiga ega bo'lish va pedagogik faoliyatida nutq madaniyatini muntazam takomillashtirib borish;

- mutolaa madaniyatiga, ifodali o'qish ko'nikmasiga ega bo'lish va kasbiy faoliyatida ularni samarali qo'llash.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotga qo'yiladigan talablar

Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar — bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari — ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chikib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: pedagog, o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili o'qituvchisi.

2.3.2. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5100	170
Tanlov fanlar	1170	39
Malakaviy va pedagogik amaliyotlar	900	30
Yakuniy davlat attestatsiyasi	30	1
Jami	7200	240

2.3.3. 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	5100	170	
1.01	MSAM1105	Media savodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.02	TA1105	Tilshunoslik asoslari	150	5	1
1.03	IIIYA1105	Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari	150	5	1
1.04	O'A11-314	O'zbek adabiyoti I, II, III	420	14	1-3
1.05	HO'AT11-418	Hozirgi o'zbek adabiy tili I, II, III, IV	540	18	1-4
1.06	IT11-418	Ingliz tili I, II, III, IV	540	18	1-4
1.07	AT1205	Axborot texnologiyalari	150	5	2
1.08	RTAK12-309	Rus tilining amaliy kursi I, II	270	9	2-3
1.09	O'RTQT12-415	O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi I, II, III	450	15	2-4
1.10	UP13-408	Umumiy pedagogika I, II	240	8	3-4
1.11	F1404	Falsafa	120	4	4

1.12	DSh1504	Dinshunoslik	120	4	5
1.13	O'EYT1504	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	5
1.14	UP15-608	Umumiy psixologiya I, II	240	8	5-6
1.15	AMIM15-608	Adabiy matnlar bilan ishlash metodikasi I, II	240	8	5-6
1.16	O'TO'M15-712	O'zbek tilini o'qitish metodikasi I, II, III	360	12	5-7
1.17	TTQG17-808	Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi I, II	240	8	7-8
1.18	XBD17-808	Xalqaro baholash dasturlari I, II	240	8	7-8
1.19	TO'PLA17-808	Til o'rganishning psixolingvistik asoslari I, II	240	8	7-8
1.20	ITGP1804	Inkluziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	8
2.00		Tanlov fanlari (9 ta fan)	1170	39	4-8
		Jami	6270	209	
		Malakaviy va pedagogik amaliyotlar	900	30	3-8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	30	1	8
		Jami	930	31	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, kompetentsiya, kredit, modul, kasbiy faoliyat turlari, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli; hozirgi o'zbek tili, nutq, me'yor, o'zbek adabiyoti, matn lingvistikasi, veb-texnologiyalar, raamli texnologiyalar, yuklama, yuklama hajmi, modellar va modellashtirish, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Rektor

Sh. Sirojiddinov

2023-yil

« 26 »

07

m.o'.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor

Sh. Yakubov

2023-yil

« 7 »

08

m.o'.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi

Direktor

Sh. Sattorov

2023-yil

« 26 »

07

m.o'.



Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika
universiteti

Rektor

A. Qirg'izboyev

2023-yil

« 26 »

07

m.o'.



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi malaka talablari
va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“26” 07 2023-yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori A.Qirg'izboyev bilan birgalikda ToShDO'TAUda ishlab chiqilgan quyidagi **60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:**

60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20- apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi “2022/2023-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-5157-son Qarori va 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” F-31-son Farmoyishlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va o'quv dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talabi va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi direktori
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti rektori

Sh.Sirojiddinov

Sh. Sattarov

A.Qirg'izboyev